

HOZIRGI XITOIY TILIDA QIYOSLASH MUNOSABATINI IFODALOVCHI KONSTRUKSIYALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Adiba Botir qizi MAXAMADTOIROVA

Xitoy filologiyasi kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent shahri, O'zbekiston

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ: АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ПРИМЕНЕНИЯ КОНСТРУКЦИЙ

Адиба Ботир кызы МАХАМАДТОИРОВА

Кафедра китайской филологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

REPRESENTING A COMPARATIVE ATTITUDE IN THE CURRENT CHINESE LANGUAGE: ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE APPLICATION OF CONSTRUCTIONS

Adiba Botir qizi MAXAMADTOIROVA

Department of Chinese Philology

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan maxamadtoirova@mail.ru

UDC (UO'K, УДК): 811.581.11

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Maxamadtoirova A.B. Hozirgi xitoy tilida qiyoslash munosabatini ifodalovchi konstruksiyalarni qo'llashdagi muammolar tahlili// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 2 (43). — B. 61-72.

<https://doi.org/10.36078/1652710869>

Received: February 22, 2022

Accepted: April 17, 2022

Published: April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Zamonaviy xitoy tilida narsa va hodisalar, holat va sifatlar hamda darajalardagi o'zaro farqlarini yoki bir xillikni ifodalashning ko'p usullari mavjud bo'lib, ular asosan holat yoki xususiyatdagi farqlarning qay darajada yuqori yoki pastligini taqqoslashda qo'llaniladi. Shu bilan birga gapning stilistik jihatdan lo'nda va ravon bo'lishiga yordam beradi. Qiyoslash mazmunidagi gaplar xitoy tilida 比较句 bǐjiào jù atamasi orqali ifodalanadi. Bu so'zning tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak 比较 bǐjiào qiyos bǐjiào jù gap ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilidagi qiyos, o'xshatish va taqqos so'zlarining xitoy tilida aynan ekvivalenti yo'q bo'lib, bularning barchasi 比较句 bǐjiào jù qiyoslash mazmunidagi gaplar deb yuritiladi. Xitoy tilida bunday gaplar sifat va darajalarning o'zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo'llaniladi. Asosan ikki kishi, ikki predmet yoki ikki holat darajalaridagi farqlarni o'zaro taqqoslashda qo'llaniladi. Ushbu maqola qiyoslash mazmunidagi gaplardagi xato va kamchiliklarning tahlili hamda ularni oldini olishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qiyos; taqqos; o'xshatish; qiyosiy daraja; old ko'makchi; qiyos obyekt; qiyos subyekt; konstruksiya.

Аннотация. В современном китайском языке имеется множество способов выражения различия или сходства между предметами и явлениями, их свойствами или качественными особенностями. В основном они используются для сопоставления высокой или низкой степеней различия между сравниваемыми объектами. В то же время они помогают сделать речь стилистически выдержанной и лаконичной. Сравнительные предложения в китайском языке выражаются термином 比较句 bǐjiào jù. Разобрав это понятие, можно

увидеть, что 比较 bǐjiào сравнение, а 句 jù означает значение предложения. В китайском языке отсутствуют прямые эквиваленты узбекским словам, таким как *сравнение, схожесть, сопоставление*, и все они передаются одной сравнительной конструкцией 比较句 bǐjiào jù. Такие предложения в китайском языке используются для выражения превосходства одного объекта над другим по каким-либо характеристикам. В основном они используются для сравнения степени различия между двумя лицами, предметами или явлениями. Данная статья посвящена анализу, а также предотвращению ошибок и недостатков в сравнительных конструкциях.

Ключевые слова: сравнение; сопоставление; аналогия; сравнительная степень; предлог; объект сравнения; предмет сравнения; конструкция.

Abstract. In modern Chinese, there are many ways to express differences or similarities between things and events, situations and qualities, and also levels, to add they are mainly used to compare differences in high or low a situation. At the same time, it helps to make the speech stylistically brief and fluent. The words in the context of comparison are expressed in Chinese by the term 比较句 bǐjiào jù. If we look at the analysis of this word, 比较 bǐjiào compares 句 jù which gives meaning of the sentence. There is no equivalent of the words analogy in Chinese language, into Uzbek, all of which are called comparison 比较句 bǐjiào jù. In Chinese language there are many types of expressions of differences and similarities between things and events, states and qualities, and levels. It is mainly used to compare differences between two people, or two objects, and also two levels of situations. This article is devoted to the classification of sentences with the specific construction models of these constructions, the functions of the sentence.

Keywords: compare, comparison, analogy, comparative degree, prefix, object of comparison, subject of comparison, construction.

Kirish. Insonning dunyoni bilish jarayonida qiyoslash juda katta ahamiyatga ega. Ikki yoki undan ortiq predmetni, ular o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqli tomonlarni aniqlash maqsadida qiyoslash tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu muhim mantiqiy kategoriya tabiiyki tilda ham o'z ifodasini topadi. Qiyoslash mazmunidagi gaplar atrofimizda bo'layotgan barcha voqealarni, hodisalarni, predmetlarni bir biridan farqini ifodalash uchun xizmat qiladi (14, 259).

Qiyoslash mazmunidagi gaplar to'rt a'zoga ega bo'ladi: 1) taqqoslanayotgan narsa yoki subyekt, 2) unga qiyos bo'luvchi narsa yoki obyekt, 3) qiyos belgisi va 4) shakliy ko'rsatkich. Sof qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir predmet, jarayon, hodisalar ikkinchisi bilan o'xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. Bunda taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega bo'ladi. Ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajaga tegishli bo'ladi. Taqqoslanayotgan predmetlar belgining tegishlilik darajasidagi ana shu farqqa ko'ra bir biriga qarama-qarshi qo'yiladi va shu tariqa predmetlar o'rtasidagi farq ko'rsatiladi (2, 214).

Qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir hukm boshqa hukmga nisbatan, undan kelib chiqqan va unga bog'liq holda ifodalanadi. Bunday gaplarda hukm to'g'ridan to'g'ri, bevosita emas, balki muayyan boshqa hukmga nisbatan ifodalanadi. Ya'ni, ularda fikrning tugalligi faqat hukmning ikki bosh bo'lagiga bog'liq emas, balki taqqosning ikkinchi obyektini sifatidagi uchinchi bo'lakka ham bog'liqdir. Ma'lum voqea, hodisa, belgi, xususiyatlarni bir biriga qiyoslashdan maqsad, ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir biriga

nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir (1, 334). Bunday gaplar dunyo tillarining deyarli barchasida mavjud, ammo ularning qurilishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi.

Xitoy tili dunyodagi eng qiyin til deya e'tirof etilgan tillardan biridir. Shuning uchun ham xitoy tilini o'qish jarayonida barcha unsurlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tilni o'rganishda esa grammatika tilning poydevori hisoblanadi Xitoy tilida ikki tomonlama tarjima jarayonida matn tarjimasini aniq, to'g'ri amalga oshirishda qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Mazkur ilmiy maqolada xitoy tilida qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalarni qo'llash jarayonida kelib chiqadigan bir qator muammolarni struktur hamda funksional tahlil qilib chiqamiz.

Asosiy qism. Qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir predmet, jarayon, hodisalar ikkinchisi bilan o'xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. Bunda taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega bo'ladi. Ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajada tegishli bo'ladi (4,158).

Xitoy tilida 比 *bǐ* old ko'makchisi sifat va darajalarning o'zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo'llanilib, asosan ikki kishi, ikki predmet yoki ikki holatning darajalaridagi farqlanir o'zaro taqqoslasda qo'llaniladi. Qiyos obyektini 比 *bǐ* old ko'makchisi yordamida taqqoslanayotgan bo'lsa, kesim taqqosning ntijasini ifodalab keladi. Bunda asosan joylashish o'rniga ko'ra avval taqqoslanayotgan predmet yoki holat keyin 比 *bǐ* old ko'makchisi, taqqoslanayotgan obyekt, undan so'ng esa taqqos natijasi joy oladi. Semantik jihatdan bo'lsa asosiy qurilish, ega kesimning orasidan hol joy oladi, 比 *bi* old ko'makchi hol vazifasini bajaradi (8, 551). Bu turdagi gaplarning tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: [A+ 比 + B+fe'l yoki sifat+(to'ldiruvchi)]. Masalan:

1. 他比她的弟弟聪明。

Tā bǐ tā dìdì cōngmíng.

U ukasidan aqlliroq.

2. 昨天比今天冷得多。

Zuótiān bǐ jīntiān lěngdé duō.

Kecha bugundan sovuqroq edi.

比 *bǐ* old ko'makchisidan gapda foydalanayotgan vaqtda turli xato kamchiliklarni oldini olish uchun e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqmiz.

1) 比 *bǐ* ishtirokidagi gaplarda daraja ravishi hisoblanmish 很 *hěn* juda so'zini qo'llab bo'lmaydi (7, 855).

×我弟弟比我很高。

Wǒ dìdì bǐ wǒ hěngāo.

√我弟弟比我高得多。

Wǒ dìdì bǐ wǒ gāo deduō.

√我弟弟比我高多了。

Wǒ dìdì bǐ wǒ gāo duōle.

Mening ukam mendan balandroq.

Bundan tashqari darajani ifodalovchi ravishlar, masalan, 非常 *fēicháng*, 极 *jí* kabilar ham 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokidagi gaplarda qo'llanila olmaydi. Agar taqqoslaganda qarshi fikrlarning farqi katta bo'lsa unda 比 *bǐ*...得多 *deduō* yoki 比 *bǐ*...多了 *duōle* konstruksiyasini qo'llash mumkin.

2) Miqdor to'ldiruvchisini sifatdan oldin qo'yib bo'lmaydi.

×我弟弟比我一头高。

Wǒ dì dì bǐ wǒ yì tóu gāo.

√我弟弟比我高一头。

Wǒ dìdì bǐ wǒ gāo yìtóu.

Yuqoridagi gapda miqdor soʻz birikmasi 一头 *yìtóu* sifat hisoblanmish 高 *gāo* soʻzining miqdor toʻldiruvchisi hisoblanadi. Xitoy tili grammatikasida quyidagicha qoida belgilab qoʻyilgan: qiyosiy daraja 比 *bǐ* old koʻmakchisi asosida amalga oshirilsa, miqdor soʻz birikmasi miqdor toʻldiruvchisi vazifasini bajarib keladi va sifatdan keyin qoʻllanilishi kerak. Bu turdagi gaplarning tuzilishi quyidagicha boʻladi:

[比+shaxs/predmet+sifat+miqdor soʻz birikmasi]. Masalan:

1. ×比他一岁小。

Bǐ tā yī suì xiǎo.

√比他小一岁。

Bǐ tā xiǎo yī suì.

Undan bir yosh kichik.

2. ×比那条马路三米宽。

Bǐ nàtiáo mǎlù sān mǐ kuān.

√比那条马路宽三米。

Bǐ nàtiáo mǎlù kuān sān mǐ.

U katta yoʻldan uch metr keng.

3) Daraja toʻldiruvchilarini feʻldan oldin ishlatib boʻlmaydi. Masalan:

×今天我比玛丽早来。

Jīntiān wǒ bǐ Mǎlì zǎo lái.

√今天我比玛丽来得早。

Jīntiān wǒ bǐ Mǎlì lái de zǎo.

Men bugun Ma li dan ertaroq keldim.

Yuqoridagi gapda kimning ertaroq kelgani taqqoslanmoqda. 早 *zǎo*, 来 *lái* daraja toʻldiruvchisi hisoblanadi. Xitoy tili grammatikasida quyidagicha qoida belgilab qoʻyilgan: qiyosiy daraja 比 *bǐ* old koʻmakchisi asosida amalga oshirilsa, daraja toʻldiruvchisi oldidan 得 *de* qoʻllanilishi lozim (10, 80). Bu turdagi gaplarning tuzilishi quyidagicha boʻladi: [比+shaxs/predmet+kesim+得 *dé*+daraja toʻldiruvchisi] Masalan:

×比他快跑。

Bǐ tā kuài pǎo.

√比他跑得快。

Bǐ tā pǎo dé kuài.

Undan tezroq yuguradi.

×比我好学。

Bǐ wǒ hào xué.

√比我学得好。

Bǐ wǒ xué de hǎo.

Mendan yaxshiroq oʻqiydi.

4) Daraja va miqdor toʻldiruvchilaridan bir xil vaqtda foydalanish mumkin emas. Masalan:

×我比玛丽来得早十分钟。

Wǒ bǐ Mǎlì lái de zǎo shífēn zhōng.

√我比玛丽早来十分钟。

Wǒ bǐ Mǎlì zǎo lái shífēn zhōng.

Men Malidan oʻni daqiqaerta keldim.

Yuqoridagi gapda miqdor toʻldiruvchisi 十分钟 *shí fēnzhōng* hamda daraja toʻldiruvchisi 来得早 *lái dé zǎo* ham bor. Xitoy tili grammatikasida quyidagicha

qoida belgilab qo'yilgan: qiyoslash 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokida amalga oshirilsa, bitta gapda bir vaqtning o'zida ikkita to'ldiruvchini qo'llab bo'lmaydi. Bunday vaziyatda daraja to'ldiruvchisi 得 *dé* tushib qoldiriladi, 早 *zǎo* sifati hol yasab, 来 *lái* fe'lidan oldin qo'llanadi (9, 110). Bu turdagi gaplarning tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega: [比 *bǐ* +shaxs/predmet+sifat (hol yasovchi)+fe'l-kesim + miqdor to'ldiruvchisi]. Masalan:

× 比我来得晚半个小时。

Bǐ wǒ lái de wǎn bàn gè xiǎoshí.

√ 比我晚半个小时。

Bǐ wǒ wǎnlái bàn gè xiǎoshí.

Mendan yarim soat kech keldi.

× 比她学得多十个生词。

Bǐ tā xuédé duō shí gè shēngcí.

√ 比她多学十个生词。

Bǐ tā duō xué shí gè shēngcí.

Undan o'nta ko'p yangi so'z yodladi.

5) Inkori ravishi 不 *bù* kesimdan oldin qo'llash mumkin emas.

× 我的汉语水平比玛丽的汉语水平不高。

Wǒ de hànyǔ shuǐpíng bǐ Mǎlì de hànyǔ shuǐpíng bù gāo.

√ 我的汉语水平不比玛丽的汉语水平高。

Wǒ de hànyǔ shuǐpíng bùbǐ Mǎlì de hànyǔ shuǐpíng gāo.

Mening xitoy tili bilish darajam Malinikidan baland emas.

6) Qiyoslash 比 *bǐ* old ko'makchisi asosida amalga oshirilsa 不 *bù* inkori ravishi, 比 *bǐ* old ko'makchisidan oldin qo'llanishi kerak, aslo kesimdan oldin qo'llab bo'lmaydi.

7) 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokidagi gaplarda taqqoslanayotgan qarama-qarshi tomonlarning farqi katta bo'lganda, [比 *bǐ*...得多 *deduō*] yoki [比 *bǐ*...多了 *duōle*] konstruksiyasini qo'llash mumkin. Lekin bu ikkita konstruksiyani birgalikda qo'llab bo'lmaydi (9, 122). Masalan:

× 我跑得比玛丽快得多了。

Wǒ pǎo dé bǐ mǎ lì kuài de duō le.

√ 我跑得比玛丽快得多。

Wǒ pǎo dé bǐ mǎ lì kuài de duō.

√ 我跑得比玛丽快得多了。

Wǒ pǎo dé bǐ mǎ lì kuài duō le.

Men Malidan tezroq yuguraman.

8) Yosh 岁 *suì* orqali ifodalanadi. 年 *nián* orqali emas. Masalan:

我比你大两岁, 他比你小一岁。

Wǒ bǐ nǐ dà liǎng suì, tā bǐ nǐ xiǎo yí suì.

× 我比你大两年, 他比你小一年。

Wǒ bǐ nǐ dà liǎng nián, tā bǐ nǐ xiǎo yí nián.

Men sendan ikki yoshga kattaman. U sendan bir yoshga kichik.

王伯母比王伯父小三岁。

Wáng bó mǔ bǐ wáng bó fù xiǎo sān suì.

× 王伯母比王伯父小三年。

Wáng bó mǔ bǐ wáng bó fù xiǎo sān nián.

Vang hola Vang amakidan uch yoshga kichik.

9) Agarda bir xil predmet ikki xil vaqt misolida taqqoslanib, o'zgarishga uchragan bo'lsa, 比 *bǐ* old ko'makchisidan so'ng vaqtni ifodalovchi so'z qo'yiladi. Masalan:

1. 这孩子的身体比以前好得多。

Zhè hái zi de shēn tǐ bǐ yīqiánnǎo dé duō.

Bu bolaning sog 'ligi avvalgisiga nisbatan anchayin yaxshi.

2. 他的身体比三年前强壮得多。

Tā de shēntǐ bǐ sānnián qián qiáng zhuàng dé duō.

Uning sog 'ligi uch yil avalgiga qaraganda anchayin kuchga to 'ldi.

Bu yerda 比 *bǐ* old ko'makchisidan avval vaqtni ifodalovchi so'zlarni qo'llash mumkin emas.

[一 *yì* + hisob so'z + 比 *bǐ* + son 一 *yì* + hisob so'z] konstruksiyasi gapda hol vazifasida kelib, darajadagi farqni asta sekinlik bilan o'zgarib borayotganini bildiradi. 一天比一天 *yìtiān bǐ yìtiān*, 一年比一年 *yìnián bǐ yìnián*, 一次比一次 *yíci bǐ yíci* konstruksiyalarini egadan oldin qo'llash mumkin emas. Masalan:

1. 天气一天比一天凉快了。

Tiānqì yìtiān bǐ yìtiān liángkuài le.

×一天比一天天气凉快了。

Yìtiān bǐ yìtiān tiānqì liángkuài le.

Havo kundan kunga sovib bormoqda.

2. 人民的生活一年比一年丰富。

Rénmín de shēnghuó yìnián bǐ yìnián fēngfù.

×一年比一年人民的生活丰富。

Yì nián bǐ yì nián rén mín de shēng huó fēng fù.

Aholining hayoti yildan yilga boyib bormoqda.

Inkor shakl 不比 *bùbǐ* va 不如 *bùrú* orqali qiyoslash mazmunidagi gaplarni ifodalashdagi muammolarni ko'rib chiqamiz.

比 *bǐ* ishtirokili gaplarning inkor shakli 不比 *bùbǐ* bo'lib, "oldingisi keyingisiga teng emas ..." ya'ni "A B dek emas" degan ma'noni anglatadi. Lekin tarjima jarayonida "B A dek ..." deyish mumkin emas. Ya'ni "keyingisi oldingisiga nisbatan ..." deb bo'lmaydi (15, 167). Masalan: 今天不比昨天冷 *jīntiān bùbǐ zuótiān lěng* bugun kechagidan sovuq emas deb tarjima qilinadi ya'ni bugun sovuq. Agarda bugun kechagidan sovuq emas deya tarjima qilinsa kecha sovuqligini anglatadi va ma'no o'zgarishiga olib keladi.

Qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor shaklini turli xil usullar bilan izohlashimiz mumkin. Lekin ularni tarjima qilish jarayonida, bir biri bilan adashtirib yubormaslik lozim. Masalan: "U menchalik baland emas 他不比我高 *tā bùbǐ wǒ gāo*" (13, 218) gapining inkor shakli turli xil ko'rinishlarda yasalishi mumkin:

他跟我差不多高。

Tā gēn wǒ chàbùduō gāo.

他跟我一样高。

Tā gēn wǒ yíyàng gāo.

我比她高一点儿。

Wǒ bǐ tā gāo yì diǎnr.

她比我高一点儿。

Tā bǐ wǒ gāo yì diǎnr.

Lekin bu gaplarning har biri aynan bir xil ma'no anglatmaydi. Bunday gaplarda 不 *bù* kesimdan oldin qo'yilishi mumkin emas. Masalan:

×她比我不高。

Tā bǐ wǒ bù gāo.

×今天比昨天不暖。

Jīn tiān bǐ zuó tiān bù nuǎn.

比 *bǐ* inkor formasining 不比 *bùbǐ* bilan birga 没有 *méiyǒu* inkor formalari ham mavjud. [A 不比 *bùbǐ* B] konstruksiyasi qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor formasi bo'lib, ularni A [没有 *méiyǒu* B] (A B dek emas) yoki [A 不如

bùrú B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ular ham gapda turlicha ma'no anglatadi (11, 78). Masalan:

1. 这件衣服不比那件衣服长。
Zhè jiàn yīfú bùbǐ nà jiàn yīfú zhǎng.
Bu kiyimni unisidan uzun deb bo'lmaydi.
2. 这件衣服没有那件衣服长。
Zhè jiàn yīfú méiyǒu nà jiàn yīfú zhǎng.
Bu kiyim unisidek uzun emas.
3. 这件衣服不如那件衣服长。
Zhè jiàn yīfú bùrú nà jiàn yīfú zhǎng.
Bu kiyimning uzunligi unisidek emas.

不如 *bùrú* biror-bir shaxs yoki predmetning boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini, yeta olmasligini ifodalab, mazkur konstruksiya asosida yasalgan gaplar quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi (15, 168).

Birinchi konstruksiya: [A+不如 *bù rú* + B].

Ikkinchi konstruksiya: [A+不如+ B + (那么/那样/这么/这样)+ kesim].

Uchinchi konstruksiya: [A+不如+B+(那么/那样/这么/这样)+kesim+to'ldiruvchi].

不如 *bùrú* orqali biror holat yoki narsa va hodisa taqqoslansa, A va B ma'lum bir tomonining daraja farqlari ko'rsatiladi Bunday gaplarning tuzilishi quyidagi konstruksiyasiga ega: [ega +不如+ shaxs +fe'l + to'ldiruvchi +takroriy fe'l+得+ daraja to'ldiruvchisi]. Masalan:

- 我不如玛丽说汉语说得好/流。
Wǒ bùrú Mǎlì shuō hànyǔ shuō de hǎo/liú lì.
Men Malidek xitoy tilini ravon gapira olmayman.
- Quyida ularning to'g'ri va noto'g'ri formalarini ko'rib chiqamiz:
1. ×我不如他打排球好。
Wǒ bùrú tā dǎpáiqiú hǎo.
√我不如他打排球打得好。
Wǒ bùrú tā dǎpáiqiú dǎ de hǎo.
Men volleybolni u kabi yaxshi o'ynay olmayman.

2. ×我不如玛丽写汉字快。
Wǒ bù rú Mǎlì xiě hàn zì kuài.
√我不如玛丽写汉字写得快。

Wǒ bùrú Mǎlì xiě hàn zì xiě dé kuài.
Mening ieroglif yozishim Malinikidek tez emas.

Endi 越来越 *yuèlái yuè* orqali qiyoslash mazmunidagi gaplarni ifodalashdagi muammolarni ko'rib chiqamiz. 越来越 *yuèlái yuè* ishtirokidagi gaplarning tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega: [Ega+越来越 *yuèlái yuè*+kesim (sifat yoki fe'l)]. Masalan:

她越来越漂亮了。
Tā yuèlái yuè piàoliang le.
U borgan sari chiroyli bo'lib bormoqda.

越来越 *yuèlái yuè* yordamida qiyosiy darajani ifodalaganimizda, e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar quyidagilardir:

Birinchi, 越来越 *yuèlái yuè* gapda oddiy fe'ldan oldin qo'llanilmaydi.

Masalan:

- × 风越来越刮得大了。
Fēng yuè lái yuè guā dé dà le.
√ 风越来越大了。
Fēng yuè lái yuè dà le.
√ 风刮得越来越大了。

Fēngguā dé yuèlái yuè dà le.

Shamol borgan sari kuchayib bormoqda.

越来越 *yuèlái yuè* ketidan keluvchi kesim o'zgaruvchi tomonni ifodalashi kerak. Odatda sifat yoki ichki kechinmalarni ifodalovchi fe'l bilan to'ldirilib keladi. Masalan, yuqoridagi misolda keltirilgan 越来越大 *yuèlái yuè dà* ichidagi 大 *dà*.

Ikkinchidan, 越来越 *yu lái yuè* gapda egadan oldin qo'llanilmaydi. Masalan:

×越来越学习汉语的人多了。

Yuèlái yuè xuéxí hànyǔ de rén duō le.

√学习汉语的人越来越多了。

Xuéxí hànyǔ de rén yuèlái yuè duō le.

Xitoy tilini o'rganuvchilar borgan sari ko'payib bormoqda.

Uchinchidan, 越来越 *yuèlái yuè* ketidan daraja ravishini ifodalovchi so'zni qo'llab bo'lmaydi. Masalan:

×天气越来越很热了。

Tiānqì yuèlái yuè hěn rè le.

√天气越来越热了。

Tiānqì yuèlái yuè rè le.

Havo borgan sari isib bormoqda.

越来越 *yuèlái yuè* so'ngi vaqtlardagi o'zgarish darajasi bilan birga o'zgarishning o'zini ham ifodalab keladi, undan keyin yana daraja ravishlari 很 *hěn*, 非常 *fēicháng*, 比较 *bǐjiào* kabilarni qo'llab bo'lmaydi (9, 130). Masalan "havo tobora isib bormoqda" gapini xitoy tiliga quyidagicha tarjima qilish mumkin emas. Masalan:

×天气越来越非常热了。

Tiānqì yuèlái yu fēicháng rè le

×天气越来越比较热了。

Tiānqì yuèlái yuè bǐjiào rè le.

×天气越来越很热了。

Tiānqì yuèlái yuè hěn rè le.

Qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalarning 越来越 *yuèlái yuè* orqali ifodalanadigan shakli, so'zlovchiga grammatik xususiyatlari bilan qiyinchiliklar tug'dirmasligi bilan qolgan konstruksiyalardan ajralib turadi.

[A 跟 *gēn* B ... 一样 *yíyàng*] konstruksiyasi asosida qiyoslash mazmunidagi gaplarni ifodalashdagi muammolarni tahlilga tortadigan bo'lsak, old ko'makchi 跟 *gēn* ikkita odam yoki ishning xususiyatni, ahvolini, miqdorini yoki darajasini farqlashda qo'llanilib, bunday gaplar quyidagi ko'rinishga ega:

[A+跟 *gēn*+ B+一样/相同/不一样/不同+fe'l/sifat]. Masalan:

1. 我跟他一样高。

Wǒ gēn tā yíyàng gāo.

Men u bilan bir xil balandman.

2. 这本书跟那本书不一样。

Zhè běn shū gēn nà běn shū bù yíyàng.

Bu kitob u kitob bilan bir xil emas.

跟 *gēn* old komakchisidan foydalanilganda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish kerak. Buni bir necha holatlarda ko'rib chiqamiz:

Birinchidan, xitoy tilida [比 *bǐ* 一样 *yíyàng*] yoki [比 *bǐ* 不一样 *bù yíyàng*] kabi modellar mavjud emas (9, 203). Faqatgina [跟 *gēn* / 和 *hé* / 同 *tóng* 一样 *yíyàng*] yoki [跟 *gēn* / 和 *hé* / 同 *tóng* 不一样 *bù yíyàng*] konstruksiyalari mavjud. Masalan:

×我们国家的习惯比中国的不一样。

Wǒ men Guójiā de xíguàn bǐ Zhōngguó de bù yīyàng.

√我们国家的习惯跟中国的不一样。

Wǒ men Guójiā de xí guàn gēn Zhōngguó de bù yīyàng.

Bizning davlatimizning urf-odatlari Xitoyniki bilan bir xil emas.

Ikkinchidan, taqqos 跟 *gēn* orqali ifodalansa, 的 *de* yordamchi soʻzining qoʻllanishiga albatta eʼtibor berish kerak. Masalan:

×我买的书跟玛丽一样。

Wǒ mǎi de shū gēn Mǎlì yīyàng.

√我买的书跟玛丽的一样。

Wǒ mǎi de shū gēn Mǎlì de yīyàng.

Men sotib olgan kitob Maliniki bilan bir xil.

Yuqoridagi gapda 书 *shū* predmet, 玛丽 *Mǎlì* boʻlsa shaxsni ifodalovchi soʻzlardir, bularni ikkovini bir biriga taqqoslab boʻlmaydi. Shuning uchun 玛丽 *Mǎlì* soʻzidan keyin aloqani boglovchi yuklama 的 *de* qoʻllanilishi kerak, shunda, 玛丽的 *Mǎlì de*, maʼnosi 玛丽的书 *Mǎlì de shū*, yaʼni “Malining kitobi”ga ega boʻladi (12, 242). Boshqa bir misol:

×我的词典跟他一样好用。

Wǒ de cí diǎn gēn tā yīyàng hǎo yòng.

√我的词典跟他的一样好用。

Wǒ de cí diǎn gēn tā de yī yàng hǎo yòng.

Mening lugʻatim unikidan qulay.

Bu gapda ham yuqoridagidek 的 *de* tushib qolishi maʼno oʻzgarishiga va uni qoʻllashdagi kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, hech qachon 比 *bǐ* va 一样 *yīyàng* dan birga foydalanish mumkin emas. Masalan:

Bu ruchka bilan anavi ruchka bir xil.

这支钢笔跟那支(钢笔)一样。

Zhè zhī gāngbǐ gēn nà zhī (gāngbǐ) yīyàng.

×这支钢笔比那支一样。

Zhè zhī gāngbǐ bǐ nà zhī yīyàng tarzida tarjima qilish mumkin emas.

Qiyoslash mazmunidagi gaplarni 有 *yǒu* feli ishtirokida ifodalashdagi muammolar muammolar tahliliga qaatadigan boʻlsak, 有 *yǒu* feʼli ikki shaxs yoki ikki xil ishning xususiyatini, vaziyatini, miqdorini yoki darajasining oʻxshash taraflarini taqqoslashda qoʻllanilib, 有 *yǒu* orqali taqqoslanayotgan gaplarda 有 *yǒu* feʼli A B ning darajasiga etganini ifodalab beradi (7, 523). Bunday gaplarning shakli quyidagicha koʻrinishga ega: [A+有 *yǒu*+ B +(那么/这么/那样/这样)+ kesim]. Masalan:

1. 这个房间有那个房间那么大。

Zhè ge fángjiān yǒu nàge fángjiān nàme dà.

Bu uy ana u uydek katta.

2. 那条河有着调和这么。

Nà tiáo hé yǒu zhe tiáo hé zhème cháng.

U daryo bu daryodek uzun.

Xitoy tilida 有 *yǒu* feʼli bilan gaplarda foydalanganib taqqosni ifodalaganimizda quyidagilarga eʼtibor berish kerak: Birinchidan, xitoy tilida [有 *yǒu* ... 一样 *yī yàng*] konstruksiyasi mavjud emas (7, 850). Masalan:

×我有他一样高。

Wǒ yǒu tā yī yàng gāo.

Men u bilan bir xil balandman.

×这本书有那本书不一样。

Zhè běn shū yǒu nà běn shū bù yī yàng.

Bu kitib u kitob bilan bir xil emas.

Ikkinchidan, 有 *yǒu* orqali taqqoslanayotgan gaplarda 有 *yǒu* A B ning darajasiga yetganini ifodalab beradi, 有 *yǒu* fe'li dan keyin, odatda, 这么 *zhème*, 这样 *zhè yang*, 那么 *nàme* yoki 那样 *nàyang* qo'llanadi, lekin, hech qachon 一样 *yī yang* ishlatilmaydi. [跟 *gēn* ... 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi turg'un konstruksiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Masalan:

×我妹妹有我一样高。

Wǒ mèimèi yǒu wǒ yīyàng gāo.

√我妹妹有我这么高。

Wǒ mèimèi yǒu wǒ zhème gāo.

Singlim mendek baland.

√我妹妹跟我一样高。

Wǒ mèimèi gēn wǒ yīyàng gāo.

Singlimning balandligi men bilan bir xil.

Ayrim hollarda og'zaki nutqda yuqorida keltirilgan birinchi misollarni uchratishimiz mumkin. Xitoy tilida [有 *yǒu*... 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi mavjud emas va bu grammatik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi. Agarda gapda bunday xatolikka yo'l qo'yilsa gapning grammatik va stilistik jihatdan noto'g'ri tuzilishiga olib keladi. Tinglovchi va so'zlovchi o'rtasida tushunmovchilik keltirib chiqaradi.

Xulosa. Maqola tahlili natijalari quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

- Qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir predmet, jarayon, hodisalar ikkinchisi bilan o'xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. Bunda taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega bo'ladi. Ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajada tegishli bo'ladi.

- Ma'lum voqea, hodisa, belgi, xususiyatlarni bir biriga qiyoslashdan maqsad, ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir. Bunday gaplar dunyo tillarining deyarli barchasida mavjud, ammo ularning qurilishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi. O'zbek tilida ham, xitoy tilida ham qiyoslash mazmuniga ega bo'lgan tizimlar ikki turga ajratiladi: 1) o'xshatish mazmuniga ega bo'lgan tizimlar; 2) sof qiyoslash mazmuniga ega bo'lgan tizimlar.

- 比 *bǐ* old ko'makchisi sifat va darajalarning o'zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo'llanilib, asosan ikki kishi, ikki predmet yoki ikki holatning darajalaridagi farqlanir o'zaro taqqoslasda qo'llaniladi. Qiyos obyektiga 比 *bǐ* old ko'makchisi yordamida taqqoslanayotgan bo'lsa, kesim taqqosning natijasini ifodalab keladi. [A+比+B+fe'l yoki sifat+(to'ldiruvchi)].

- Qiyoslash 比 old ko'makchisi ishtirokida amalga oshirilsa, bitta gapda bir vaqtning o'zida ikkita to'ldiruvchini qo'llab bo'lmaydi. 比 old ko'makchisi orqali ikki kishining yoshi taqqoslanayotgan bo'lsa, yosh 岁 orqali ifodalanadi, 年 *nián* orqali emas. Yoshning katta kichikligi 大, 小 fe'llari orqali ifodalanadi.

- Agarda 比 old ko'makchisidan oldingi yoki keyingi so'zlar o'xshash bo'lsa, odatda 比 dan keyingi qism tushirib qoldiriladi. Bu gap mazmuniga ta'sir qilmaydi. Lekin ikkala ega va kesim bir xil bo'lmasa u holda qisqartirish usulini qo'llab bo'lmaydi.

- 比 old ko'makchisi ishtirokidagi gaplarda juda ma'nosini beruvchi 很, 非常, 极 kabi daraja ravishlarini qo'llab bo'lmaydi. Agar farq juda katta bo'lsa unda “比...得多” yoki “比...多了” shaklida ifodalash mumkin. Lekin bu ikkita konstruksiyani birgalikda qo'llab bo'lmaydi;

- Qiyoslash 比 old ko‘makchisi orqali amalga oshirilsa, 不 inkor ravishi 比 old ko‘makchisidan oldin qo‘llanishi kerak. Lekin aslo kesimdan oldin qo‘llab bo‘lmaydi.

- Inkor shakl 不比 bilan birga 没有, 不如 inkor formalari ham mavjud bo‘lib, [A 不比 B] konstruksiyasi qiyoslash mazmunidagi gaplarning inkor formasidir. [A 没有 B] (A B dek emas) yoki [A 不如 B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ular gapda turlicha ma‘no anglatadi.

- 越来越 gapda oddiy fe‘ldan oldin qo‘llanilmaydi. 越来越 dan keyin 很, 非常, 比较 kabi daraja ravishlarini ham qo‘llab bo‘lmaydi. [-+hisob so‘za+比 +son -+hisob so‘z] konstruksiyasi gapda hol vazifasida kelib, darajadagi farqni asta sekinlik bilan o‘zgarib borayotganini bildiradi. Egadan oldin qo‘llanilmaydi.

- 比 va 一样 bitta konstruksiyani tashkil etmaydilar. Xitoy tilida [A 比 B.....一样] yoki [比.....不一样] kabi modellar mavjud emas. Faqatgina [跟/和/同.....一样] yoki [跟/和/同...不一样] konstruksiyalari mavjud.

- Xitoy tilida [有...一样] konstruksiyasi ham mavjud emas. Taqqoslash 有 fe‘li orqali amalga oshirilsa, 有 fe‘lidan keyin, odatda 这么, 这样, 那么 yoki 那样 qo‘llanadi, lekin, 一样 ishlatilmaydi. [A 跟 B 一样] konstruksiyasi orqali taqqos olib borilganda, 的 de yordamchi so‘zining tushib qolishi ma‘no o‘zgarishiga va uni qo‘llashdagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф.А., Шоабдурахмонов. Ш.Ш., Ҳожиёв А.П. (1996). Ўзбек тили грамматикаси. II. Синтаксис. – Тошкент: Фан, – 450 б.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. (1992). Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, – 397 б.
3. Ҳожиёв А. (2002). Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 164 б.
4. Горелов В.И. (1992). Грамматика китайского языка. – Москва: Просвещение, – 278 с.
5. Виноградов С.Н., Кузьмин А.Ф. (1993). Логика. – Москва: Наука, – 164 с.
6. Драгунов А.А. Грамматическая система современного китайского языка. – Ленинград, 1962. – 250 с.
7. Liu Yuehua. (2001). 实用现代汉语语法 (Practical Modern Chinese Grammar). – Beijing: Commercial Press. – p. 940.
8. Li Dejin, Cheng Meizhen. (2008). 外国人实用汉语语法 (Practical Chinese for Foreigners). – Beijing: Beijing Language and Culture University Press. – p. 652.
9. Dai Xuemei, Zhang Ruoying. (1999) 实用汉语语法三百点 (300 Practical Chinese Grammar). – Beijing: New World Publishing. – p. 240.
10. Ding Shengshu. (1996) Modern Chinese Grammar Speech. – Beijing: Commercial Press. – p. 120.
11. Liu Haobo. (2013) A Syntactic Analysis of the Bi Comparative Construction. – Sichuan: Sichuan International Studies University Master Degree Thesis. – p. 78.
12. 苗东霞编煮. (2010) HSK 考前强化语法. — Beijing: Central Compilation and Translation Press. – pp. 475 页.
13. Yang Jie, Du Xin. (2012). 新 HSK 模拟题集. (4/5). – Beijing: Central Compilation and Translation Press. – pp. 414.
14. Махмудов Н.С. (1984). Семантика-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ... док-ра филол. наук. – Тошкент, – 259 б.

15. Ochilov O.M. (2015). Xitoy tilida qiyosiy gaplarning shakli haqida // Xitoyshunoslik fakultetintng birinchi ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, – b. 163-173.
16. Shang Ping. (2006) A Review of Comparative Sentence System Research. Language and Character Applications. – pp. 3-5.

References

1. Abdurakhmonov F.A., Shoabduraxmonov. Sh.Sh., Xozhiev A.P., Uzbek tili grammatikasi. II. Sintaksis (Uzbek Grammar. II. Syntax), Tashkent: Fan, 1996, 450 p.
2. Tursunov U., Mukhtorov Zh., Rakhmatullaev Sh., Hozirgi uzbek adabii tili (Modern Uzbek Literary Language), Tashkent: Uzbekiston, 1992, 397 p.
3. Xozhiev A., *Tilshunoslik terminlarining izoxli luzati* (Annotated Dictionary of Linguistic Terms), Tashkent: Uzbekiston millii entsiklopediyasi, 2002, 164 p.
4. Gorelov V.I., Grammatika kitaiskogo yazyka (Chinese Grammar.), Moscow: Prosveshchenie, 1992, 278 p.
5. Vinogradov S.N., Kuz'min A.F., *Logika* (Logics), Moscow: Nauka, 1993, 164 p.
6. Dragunov A.A. Grammaticheskaya sistema sovremennogo kitaiskogo yazyka (Grammar system of modern Chinese), Leningrad, 1962, 250 p.
7. Liu Yuehua. (2001). 实用现代汉语语法 (Practical Modern Chinese Grammar), Beijing: Commercial Press, 940 p.
8. Li Dejin, Cheng Meizhen. (2008). 外国人实用汉语语法 (Practical Chinese for Foreigners), Beijing: Beijing Language and Culture University Press, 652 p.
9. Dai Xuemei, Zhang Ruoying. (1999) 实用汉语语法三百点 (300 Practical Chinese Grammar), Beijing: New World Publishing, 240 p.
10. Ding Shengshu. (1996) Modern Chinese Grammar Speech, Beijing: Commercial Press, 120 p.
11. Liu Haobo. (2013) A Syntactic Analysis of the Bi Comparative Construction, Sichuan: Sichuan International Studies University Master Degree Thesis, 78 p.
12. 苗东霞编煮. (2010) HSK 考前强化语法, – Beijing: Central Compilation and Translation Press, pp. 475 页.
13. Yang Jie, Du Xin. (2012). 新 HSK 模拟题集. (4/5), Beijing: Central Compilation and Translation Press, pp. 414.
14. Makhmudov N.S. (1984). Semantika-sintakticheskaya assimetriya v prostom prodlozhenii uzbekskogo yazyka (SeDiss. ... dok-ra filol. nauk Doctor's thesis mantics-syntactic asymmetry in the simple sentence of the Uzbek language), Tashkent, 1984, 259 p.
15. Ochilov O.M. (2015). Xitoyshunoslik fakultetintng birinchi ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (Proceedings of the First Scientific-Practical Conference of the Faculty of Chinese Studies), Tashkent, pp. 163-173.
16. Shang Ping. (2006) A Review of Comparative Sentence System Research. Language and Character Applications, pp. 3-5.